



XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA VILOYATI DANG'ARA TUMAN KENGASHI QARORI

2022 - yil 6 - oktabr

VI-62-150-11-155-K/22

Dang'ara tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 15 iyulidan 17 sentabriga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri K.Latipovning axboroti;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 20 sentabrdagi “Tuman (shahar) budgetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi KQ-406-IV-sonli qarori ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashining qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, ENG KO‘P ovoz olgan hamda “Ochiq budget” axborot portalida avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan takliflar “g‘olib” deb topilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha “Manzilliy ro‘yhat” 1-ilovaga muvofiq ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaslik;

-Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan shahar budjeti mablag'lari shahar hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo'yilsin.

3. Tasdiqlangan Manzilliy ro'yxat asosida:

- Tuman hokimligi Moliya bo'limi (K.Latipov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbaasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- Tuman hokimligi hisobxonasi (Sh.Tursunov) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

4. Xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashining 2022 yil 7 fevraldagi IV-47-26-11-155-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tuman (shahar) budjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risida"gi nizomga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

5. Tuman hokimligining matbuot kotibi (U.Usmonov) va tuman moliya bo'limi (K.Latipov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq budjet" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash va nazorat qilish komissiya a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Sh.Tojixakimov

Xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashining
2022 yil 6 oktabrdagi
VI-62-150-11-155-K/22-son qaroriga
1-ilova

Dang'ara tuman "Tashabbusli budjet" loyihasining 2-mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha

MANZILLI RO'YXAT

№	G'olib taklif ma'lumotlari						Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Haqiqatda ajratilgan mablag'	Shundan			Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot
	Taklif ID raqami	Taklif turkum	Qisqacha mazmuni	Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi)	Amalga oshiriladigan tadbir turi	To'plagan ovozlari soni			Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Mahalliy budjetning qo'shimcha manbaalari hisobidan	Budjet parametri doirasida	
			Данғара тумани жами		xxx	112 032	3 600	3 600	3 600	0	0	
1	1,501E+09	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Sanam MFY eski shildir kishlogi Nurafshon kuchasi 3000 metr qismini asfaltlashtirish	Dang'ara tumani Sanam MFY	Qurilish	49314	1 200	1 200	1 200			Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
2	1,501E+09	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Soy shildir MFY Soy shildir kishlogi Istiklol kuchasi kirish kismidan 600 metr, Kushchinor kuchasi kirish kismidan 800 metr, Uzbekiston kuchasi kirish kismidan 600 metr va Dustlik kuchasi kirish kismidan 1000 metr jami 3000 metr kismni asfaltlashtirish	Dang'ara tumani Soy shildir MFY	Qurilish	47892	1 200	1 200	1 200			Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
	1,501E+09	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Tulaboy MFY Tingchlik kuchasi 2000 m, Zarbdor kuchasi 500 m, Soy buyi kuchasi 250 m, Dustlik kuchasiga 250 m asfaltlashtirish	Dang'ara tumani To'laboy MFY	Qurilish	14826	1 200	1 200	1 200			Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK

Xalq deputatlari Dang'ara tuman
Kengashining
2022 yil 6 oktabrdagi
VI-62-150-11-155-K/22-son qaroriga
2-ilova

Tuman budjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar

Xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashining 2022 yil 7 fevraldagi IV-47-26-11-155-K/22-sonli Qarori bilan tasdiqlangan tuman budjeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi nizomga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur nizom tuman budjeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish, shuningdek, “Ochiq budjet” portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish tartibini belgilaydi”;

2) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**jamoatchilik fikri** – ushbu Nizomda belgilangan tartibda fuqarolar tomonidan tuman (shahar)da mavjud ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan ishlarni (xizmatlarni) mazkur hudud mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish bo'yicha bildirilgan takliflar;

tashabbusli budjet jarayoni – “Ochiq budjet” axborot portalida (keyingi o'rinlarda – Portal) jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, ularni saralash va ovoz berish jarayoni doirasida g'olib loyihalarni aniqlash hamda tuman va shahar budjetlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni o'z ichiga olgan jarayon;

g'olib loyiha – Portalda ovoz berish jarayoni yakunlariga ko'ra to'plangan ovozlar soni asosida avtomatik tarzda tanlab olingan loyiha;

fuqarolar tashabbusi jamg'armasi – Dang'ara tuman hokimligida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari shaklida ochilgan shaxsiy g'azna hisobvarag'i;

loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi – tashabbusli budjet jarayoni doirasida g'olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirishning barcha bosqichlarini Portal orqali bevosita fuqarolarga kuzatib borish imkoniyatini beruvchi maxsus bo'lim;

ishchi komissiya – jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha Dang'ara tuman hokimligi qoshida tashkil etilgan komissiya;

onlayn murojaat – Portalda fuqarolar tomonidan savol, shikoyat, taklif yoki qonun buzilish holatlari yuzasidan xabar qoldirish imkoniyatini beruvchi maxsus sahifa”;

3) quyidagi mazmundagi 21, 22, 23, 24 va 25-boblar bilan to'ldirilsin:

“21-bob. “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish tartibi

324. Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) mablag'lari faqat Portal orqali g'olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun sarflanadi. Bunda loyihada nazarda tutilgan tadbirlardan tashqari ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan hujjatlar (tegishli tashkilotlarning xulosalari, yakuniy ko'rikdan o'tkazish xarajatlari va boshqalar) uchun ham to'lovlar moliyalashtirilishiga yo'l qo'yiladi.

325. Jamg'arma mablag'laridan foydalanish tegishli xalq deputatlari tuman Kengashlari qarori asosida amalga oshiriladi.

326. Loyihalarni ko'rib chiqish va amalga oshirish bo'yicha buyurtmachi tashkilotlar mazkur nizomning 5-ilovasiga muvofiq tarzda belgilanadi.

327. Tashabbusli budjet jarayoni doirasida fuqarolar tomonidan kelib tushgan loyihalar Ishchi komissiya tomonidan Portalga kelib tushgan kundan boshlab 10 kun ichida mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq loyihaning mazmunan tegishlilik bo'yicha buyurtmachi korxonalariga (keyingi o'rinlarda – buyurtmachi) yuboriladi.

328. Buyurtmachilar tomonidan loyihalar qabul qilingan kundan boshlab 10 ish kunida qonun hujjatlarida belgilangan mezonlarga muvofiqligi yuzasidan loyihalarni ko'rib chiqadi va Ishchi komissiyaga loyihalarni qabul qilish (loyihaning qiymati va amalga oshirish uchun talab etiladigan qo'shimcha hujjatlar ro'yxatini ilova qilgan holda) yoki asoslantirilgan holda rad etish yuzasidan xulosa taqdim etadi.

329. Ishchi komissiya loyihalarni buyurtmachilar tomonidan taqdim etilgan xulosalar asosida ovoz berish bosqichiga o'tkazadi.

3210. Ovoz berish bosqichi yakunlariga ko'ra loyihalarga to'plangan ovozlar sonidan kelib chiqib, Portal tomonidan avtomatik tarzda "g'olib" loyihalar ro'yxati shakllanadi.

3211. Tashabbusli budjet jarayoni doirasida ovoz berish bosqichi yakunlangandan so'ng 7 kun muddatda "g'olib" deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan Ishchi komissiya tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga qaror loyihasi kiritiladi.

3212. Qaror loyihasiga g'olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan "Manzilli ro'yxat" ilova qilinadi. Manzilli ro'yxat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- g'olib deb topilgan loyihaning Portaldagi xos "ID" raqami;
- amalga oshiriladigan tadbirlarning aniq manzili yoki balansda saqlovchi korxonaning manzili va nomi;
- loyihada nazarda tutilgan amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlarning qisqacha mazmuni;
- tadbirni amalga oshirish uchun talab etiladigan dastlabki mablag' qiymati;
- loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi etib belgilangan korxonalar;
- loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan qo'shimcha hujjatlar (binolarni qurish uchun ekspertiza hujjatlari, hokimning yer ajratish to'g'risidagi tegishli qarori, loyiha-smeta hujjatlari va boshqalar);
- agar tadbir bevosita tovar va moddiy qiymatliklar (xizmatlar)ni xarid qilish bilan bog'liq bo'lsa, ushbu loyihalar bo'yicha mazkur nizomning 6-ilovasiga muvofiq shaklda xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) reestri (keyingi o'rinlarda – Reestr) ilova qilinadi. Bunda reestrda ko'zda tutilgan xaridlarning jami summasi Manzilli ro'yxatda

tegishli loyihani moliyalashtirish uchun ko'zda tutilgan mablag'dan ortib ketishiga yo'l qo'yilmaydi;

- xarid qilish tartib-taomili turi (elektron do'kon, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va boshqalar).

3213. Manzilli ro'yxat belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi, jumladan, buyurtmachi tashkilotlar to'g'ri tanlanishi, Reestr to'g'ri shakllantirilishi, xarid qilish tartib-taomili turi va loyihani amalga oshirish aniq manzili kabi ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilishi uchun Ishchi komissiya mas'ul hisoblanadi.

3214. G'olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirish uchun yer va boshqa resurslar ajratilishi, shuningdek, tegishli soha inspeksiyalarining ekspertiza xulosalari talab etilgan hollarda, ushbu resurslarni ajratish bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega tashkilotlarga Manzilli ro'yxat tasdiqlangandan so'ng 1 ish kunida tuman (shahar) hokimligi tomonidan so'rov yuboriladi.

3215. Xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashi tomonidan qaror va manzilli ro'yxat tasdiqlanganidan so'ng tuman moliya bo'limi tomonidan g'olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun buyurtmachi tashkilotlarga har bir loyiha uchun alohida Moliya vazirligi G'aznachiligida mablag'lar manbasi "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" bo'lgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

3216. Ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga 3 ish kuni ichida Jamg'arma hisobidan tuman hokimligi tomonidan g'olib deb topilgan loyihalar uchun Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'lar o'tkazib beriladi.

3217. Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'lar tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkazib berilgandan so'ng buyurtmachi tashkilotlar 3 ish kunida tovar-moddiy boyliklar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish uchun ta'minotchi korxonalarni aniqlash, qurilish-ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini shakllantirish va loyihachi korxonalarni aniqlash bo'yicha davlat xaridlari elektron tizimiga e'lon joylashtiradi.

3218. Qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar yuzasidan loyiha-smeta hujjatlariga ekspertiza xulosasi olingan kundan boshlab 1 ish kunida buyurtmachi tashkilotlar Manzilli ro'yxatda ko'rsatilgan xarid qilish tartib-taomili turi bo'yicha pudratchi korxonalarni aniqlash choralari ko'radi.

3219. G'olib loyihalar amalga oshirish shakllariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) xarid qilish bo'yicha tadbirlar;
- bino va inshootlarni joriy yoki kapital ta'mirlash (rekonstruksiya qilish) bo'yicha tadbirlar;
- bino va inshootlar qurish (barpo etish) bo'yicha tadbirlar.

22-bob. Tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) xarid qilish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish

3220. Tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) xarid qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda buyurtmachi tashkilot davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moddiy qiymatliklar (xizmatlar)ni yetkazib beruvchi yoki pudratchilarni aniqlash:

- elektron do‘kon orqali;
- boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion orqali;
- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish orqali davlat xaridlarini amalga oshiradi.

3221. Tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) xarid qilish 3220-bandda keltirilgan xarid qilish tartib-taomili turi orqali tartib va muddatlarda amalga oshiriladi.

3222. Ajratilgan mablag‘lar faqat Manzilli ro‘yxatga ilova qilingan Reestrda nazarda tutilgan tovar-moddiy qiymatliklar (xizmatlar)ni xarid qilish uchun sarflanadi. Bunda reestrda kiritilgan tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) turi o‘zgartirilishiga yoki soni oshirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3223. Xarid qilinishi nazarda tutilgan tovar-moddiy qiymatliklarni haqiqiy bozor narxi g‘olib deb topilgan loyiha uchun nazarda tutilgan mablag‘dan ortiq bo‘lsa, ushbu holatda Reestrning jami summasiga aniqlik kiritilishi mumkin. Bunday hollarda yetishmagan mablag‘lar Jamg‘arma hisobidan ajratilishi uchun Manzilli ro‘yxatga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi qarori qabul qilinishi lozim.

3224. Xarid qilingan tovar-moddiy qiymatliklar buyurtmachi tashkilot balansiga kirim qilinadi va belgilangan tartibda buxgalteriya hisobotlarida aks ettiriladi.

3225. Buyurtmachi tashkilot xarid qilingan tovar-moddiy qiymatliklarni saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan kelgusi moliya yili uchun budjet so‘rovida tegishli mablag‘lar ko‘zda tutilishini ta‘minlaydi.

3226. Umumfoydalanishda bo‘lgan tabiiy resurslar bilan ta‘minlash vositalari (transformator, quvurlar, uzellar va boshqa tabiiy resurslarni yetkazib berishda qo‘llaniladigan vositalar)dan foydalanishda buyurtmachi tashkilot mazkur vositalarni o‘z balansiga kirim qiladi hamda tomonlar o‘rtasida kelishuv asosida tegishli ekspluatatsiya korxonalariga foydalanish uchun beradi.

23-bob. Bino va inshootlarni joriy yoki kapital ta‘mirlash (rekonstruksiya qilish) bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish

3227. Mavjud bino va inshootlarni joriy yoki kapital ta‘mirlash (keyingi o‘rinlarda – ta‘mirlash) bo‘yicha tadbirlar buyurtmachi tashkilot tomonidan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq:

a) ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish uchun Manzilli ro‘yxatda ko‘rsatilgan qo‘shimcha talab etiladigan hujjatlarni:

- elektron do‘kon orqali;
- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali;
- yagona yetkazib beruvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaklda;

b) ta‘mirlash ishlarini amalga oshiruvchi pudratchi tashkilotlarni:

- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshiradi.

3228. Ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish hamda tegishli hujjatlarni

rasmiylashtirish uchun pudratchilarni aniqlash 3227-bandda keltirilgan usullardan biri orqali qonun hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda amalga oshiriladi.

3229. Ajratilgan mablag'lar faqat Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish va ushbu tadbirlarni bajarish uchun qo'shimcha talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlariga sarflanishi mumkin. Bunda Manzilli ro'yxatda ko'rsatilgan ta'mirlash ishlari hajmining oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3230. Ta'mirlash ishlarining haqiqiy bozor narxi Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'dan ortiq bo'lsa, ekspertizadan o'tkazilgan loyiha-smeta hujjatlari hamda buyurtmachi korxonaning xulosasiga asosan loyihaning amalga oshirish yakuniy qiymatiga aniqlik kiritilishi mumkin. Bunday hollarda qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar Jamg'arma hisobidan ajratilishi uchun Manzilli ro'yxatga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashi qarori qabul qilinishi lozim.

3231. Ta'mirlash ishlari uchun buyurtmachi etib, qoida tariqasida, balansda saqlovchi yoki budjet mablag'i taqsimlovchi belgilanadi. Agar loyihaning amalga oshirish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1000 barobaridan ortiq bo'lsa (ichki yo'llarni ta'mirlash bundan mustasno), buyurtmachi etib viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK DUK buyurtmachi etib belgilanishi mumkin.

3232. Buyurtmachi korxonalar etib yagona buyurtmachi korxonalar belgilanganda ushbu korxonalar uchun tuman darajasida maxsus g'azna hisobvaraqlari ochilib, "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan g'olib loyihani amalga oshirish uchun ko'zda tutilgan mablag'lar o'tkazib beriladi.

3233. Ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun yagona buyurtmachi korxonalar va balansda saqlovchi o'rtasida bitim imzolalanadi. Bitimda loyihani amalga oshirish qiymati, amalga oshiriladigan ishlar, qabul qilib olish muddati va boshqa texnik ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

3234. Yagona buyurtmachi korxonalar tomonidan loyihani amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pudratchi korxonalar bilan shartnomalar rasmiylashtiriladi.

3235. Ta'mirlash ishlari yakunlangandan so'ng ta'mirlangan ob'ekt amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tegishli hujjat va xulosalar bilan birga balansda saqlovchiga topshiriladi.

3236. Ta'mirlash ishlari sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun javobgarlik buyurtmachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

24-bob. Bino va inshootlar qurish (barpo etish) bilan bog'liq tadbirlar

3237. Jamoatchilik ehtiyoji uchun fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladigan ob'ektlar, shu jumladan, bino va inshootlarni qurishda (keyingi o'rinlarda – qurilish ishlari) buyurtmachi etib:

- qurilish ishlarining amalga oshirish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravarigacha bo'lsa, balansda saqlovchi korxonalar tomonidan (keyinchalik ob'ektni qabul qilib olishda tegishli mutaxassislarni yollagan holda ularning xulosasini olish sharti bilan);

- qurilish ishlarining amalga oshirish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravaridan ortiq bo'lsa, yagona yetkazib beruvchi korxonalar belgilanadi.

3238. Balansda saqlovchilar buyurtmachi sifatida qurilish ishlarini amalga oshirishda:

a) qurilish ishlarini amalga oshirish uchun Manzilli ro'yxatda ko'rsatilgan qo'shimcha talab etiladigan hujjatlarni:

- elektron do'kon orqali;
- auksion orqali;
- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali;
- yagona yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shaklda;

b) qurilish ishlarini amalga oshiruvchi pudratchi tashkilotlarni:

- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali;
- tender orqali aniqlagan holda amalga oshiradi.

3239. Ajratilgan mablag'lar faqat Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan qurilish ishlarini amalga oshirish va ushbu tadbirlarni bajarish uchun qo'shimcha talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlariga sarflanishi mumkin. Bunda Manzilli ro'yxatda ko'rsatilgan qurilish ishlari hajmi oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3240. Balansda saqlovchilar sifatida buyurtmachi belgilanib ishlar amalga oshirilganda qurilish ishlari yakunlariga ko'ra bajarilgan ishlarni belgilangan texnik mezonlarga muvofiqligi yuzasidan mutaxassislar jalb etilgan holda ob'ektlar qabul qilib olinishi va foydalanishga topshirilishi lozim.

3241. Qurilish ishlarining haqiqiy bozor narxi Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'dan ortiq bo'lsa, ekspertizadan o'tkazilgan loyiha-smeta hujjatlari hamda buyurtmachining xulosasiga asosan qurilish ishlarining yakuniy qiymatiga aniqlik kiritilishi mumkin. Bunday hollarda yetishmagan mablag'lar Jamg'arma hisobidan ajratilishi uchun Manzilli ro'yxatga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan xalq deputatlari tuman Dang'ara tuman Kengashi qarori qabul qilinishi lozim.

3242. Buyurtmachi korxonalar etib yagona buyurtmachi korxonalar belgilanganda ushbu korxonalar uchun tegishli tuman darajasida maxsus g'azna hisobvaraqlari ochilib, "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan g'olib loyihani amalga oshirish uchun ko'zda tutilgan mablag'lar o'tkazib beriladi.

3243. Qurilish ishlarini amalga oshirish uchun yagona buyurtmachi korxonalar va balansda saqlovchi o'rtasida bitim imzolalanadi. Bitimda loyihani amalga oshirish qiymati, amalga oshiriladigan ishlar, qabul qilib olish muddati va boshqa texnik ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

3244. Yagona buyurtmachi korxonalar tomonidan loyihani amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pudratchi korxonalar bilan shartnomalar rasmiylashtiriladi.

3245. Qurilish ishlari yakunlangandan so'ng Yagona buyurtmachi korxonalar tomonidan yangi qurilgan ob'ektlar tegishli hujjat va foydalanishga loyiq ekanligi yuzasidan texnik xulosalar bilan birga balansda saqlovchiga topshiriladi.

3246. Qurilish ishlari sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun javobgarlik buyurtmachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

25-bob. Loyihalarni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratining o‘rnatilishi

3247. Tuman (shahar) hokimliklari qoshida tashkil etilgan Ishchi komissiya tomonidan tashabbusli budjet jarayonlari ijrosi yuzasidan har chorak yakunlariga ko‘ra hisobotlar hokimlikning rasmiy veb-sayti hamda Portal orqali jamoatchilikka e‘lon qilib boriladi.

3248. G‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirishning barcha bosqichlari fuqarolar uchun ochiqligini va ular tomonidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishini ta‘minlash maqsadida Portalda “loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi” yuritib boriladi.

3249. Ishchi komissiya loyihalarni amalga oshirish xronologiyasida tegishli ma‘lumotlar belgilangan muddatlarda kiritilishiga va yangilab borilishiga mas‘ul hisoblanadi.

3250. Loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi:

- buyurtmachi tashkilot nomi;
- loyiha uchun ochilgan hisobvaraqlar;
- loyiha uchun ajratilgan mablag‘ miqdori;
- loyiha-smeta va ekspertiza hujjatlari;
- “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq o‘tkazilgan tanlovlar;
- pudratchi korxonalar to‘g‘risida ma‘lumotlar;
- amalga oshirilgan xarajatlar va rasmiylashtirilgan shartnomalar.

3251. G‘olib deb topilgan loyihalar mualliflari tomonidan tadbirlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarini kuzatish hamda bajarilgan ishlarni real-vaqt ko‘rinishida baholab borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunda jamoatchilik nazorati doirasida fuqarolar tadbirlarni kuzatib borish orqali qonun buzilishi holatlari yoki kamchiliklar kuzatilganda shikoyat tarzida vakolatli organlarga yoki Portal orqali “onlayn murojaat” sahifasiga murojaat qilishlari mumkin.

3252. G‘olib deb topilgan loyiha tashabbuskorlari tomonidan loyihani amalga oshirishda boshqa ko‘rinishdagi aralashuvlarga (pudratchi korxonani aniqlash yoki ishlarni ularning o‘zlari tomonidan amalga oshirish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va shu kabilarga) yo‘l qo‘yilmaydi.

3253. Loyihalar amalga oshirilgandan so‘ng g‘olib deb topilgan loyihalar tashabbuskorlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar Portalda “Jamoatchilik nazorati” bo‘limi orqali baholanadi va bajarilgan ishlar yuzasidan kamchiliklar kuzatilganda izohlar bildirish hamda foto yoki video materiallar ilova qilish imkoniyati yaratiladi.

3254. Loyihalarni amalga oshirish davomida yoki ishlar yakunlangandan so‘ng bajarilgan ishlar natijalariga ko‘ra ortiqcha to‘lovlar yoki kamomad aniqlangan hollarda, aniqlangan kamomad mablag‘lari tegishlilik bo‘yicha jamg‘armaga to‘liq qayta tiklanishi ta‘minlanadi”;

4) 5 va 6-ilovalar bilan to‘ldirilsin.

Tuman budjeti mablag‘larini jamoatchilik

yo'naltirish
nizomga

fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga
tartibi to'g'risidagi

5-ilova

Tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha buyurtmachi tashkilotlar ro'yxati

T/R	Loyihaning qisqacha nomi	Balansda saqlovchi	Buyurtmachi korxonasi		
			xarid tadbirlari	ta'mirlash tadbirlari*	qurish tadbirlari*
1	Avtomobil yo'llarini (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi	X	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi/ Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi/ Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
		Umumfoydalanishdagi yo'llar	X	Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
2	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Maktabgacha ta'lim bo'limi	Maktabgacha ta'lim bo'limi	Maktabgacha ta'lim bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi	Maktabgacha ta'lim bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi
3	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish yoki ta'mirlash (simyog'och o'rnatish) tadbirlari	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi
4	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Xalq ta'limi bo'limi	Xalq ta'limi bo'limi	Xalq ta'limi bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi	Xalq ta'limi bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi
5	Bolalar maydonchalarini (o'yingohlarini) barpo etish yoki ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Mahalla fuqarolar yig'ini	Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvatlash bo'limi	Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvatlash bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi	Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvatlash bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi
		Ko'p qavatli uylarga xizmat ko'rsatish shirkatlari	Hokimlik	Hokimlik/yagona buyurtmachi korxonasi	Hokimlik/yagona buyurtmachi korxonasi
6	Ko'p qavatli uylarni ta'mirlash tadbirlari	Ko'p qavatli uylarga xizmat ko'rsatish shirkatlari	X	Hokimlik	Hokimlik/yagona buyurtmachi korxonasi
7	Sport muassasalari yoki sog'lomlashtirish markazlarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish	Barcha hollarda	Sportni rivojlantirish bo'limi	Sportni rivojlantirish bo'limi	Sportni rivojlantirish bo'limi
8	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Tibbiyot birlashmasi	Tibbiyot birlashmasi	Tibbiyot birlashmasi/yagona buyurtmachi korxonasi	Tibbiyot birlashmasi/yagona buyurtmachi korxonasi

T/R	Loyihaning qisqacha nomi	Balansda saqllovchi	Buyurtmachi korxonalar		
			xarid tadbirlari	ta'mirlash tadbirlari*	qurish tadbirlari*
9	Mahalla guzari (mahallada umumfoydalanishda bo'lgan boshqa ob'ektlar)ni ta'mirlash-tiklash bilan bog'liq xarajatlar	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi/yagona buyurtmachi korxonalar	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi/yagona buyurtmachi korxonalar
10	Drenaj va ariq (zovur)larni tartibga keltirish bilan bog'liq tadbirlar	Irrigatsiya bo'limi	X	Irrigatsiya bo'limi	Irrigatsiya bo'limi
11	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish (tuman yoki shahar qiyofasini o'zgartirish) bilan bog'liq tadbirlar	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
12	Qabristonlarni tartibga keltirish tadbirlari	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
13	Aholi dam olish maskanlarini ta'mirlash yoki moddiy-texnik bazasini rivojlantirish bilan bog'liq tadbirlar	Barcha hollarda	Balansda saqllovchi budget tashkiloti	Balansda saqllovchi budget tashkiloti /yagona buyurtmachi korxonalar	Balansda saqllovchi budget tashkiloti /yagona buyurtmachi korxonalar
14	Tabiiy gaz ta'minoti bilan bog'liq loyihalalar	Tuman gaz ta'minoti	X	Tuman hokimligi/yagona buyurtmachi korxonalar	Tuman hokimligi/yagona buyurtmachi korxonalar
15	Elektr ta'minoti, transformator o'rnatish va ta'mirlash tadbirlari	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi/yagona buyurtmachi korxonalar	Tuman hokimligi/yagona buyurtmachi korxonalar
16	Ichimlik suvi va oqava suv tizimini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlar	Suv ta'minoti korxonasi	X	Tuman hokimligi/ Suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlari qurilishi bo'yicha injinering kompaniyasi UK xududiy boshqarmalari	Tuman hokimligi/ Suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlari qurilishi bo'yicha injinering kompaniyasi UK xududiy boshqarmalari
17	Musiqashkilotlarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Musiqashkilotlari	Musiqashkilotlari	Musiqashkilotlari/yagona buyurtmachi korxonalar	Musiqashkilotlari/yagona buyurtmachi korxonalar
18	Boshqa ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Budget mablag'larini taqsimlovchisi	Budget mablag'larini taqsimlovchi	Budget mablag'larini taqsimlovchi/yagona buyurtmachi korxonalar	Budget mablag'larini taqsimlovchi/yagona buyurtmachi korxonalar
19	Oliy o'quv yurtlarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Oliy o'quv yurti	Oliy o'quv yurti	Oliy o'quv yurti/yagona buyurtmachi korxonalar	Oliy o'quv yurti/yagona buyurtmachi korxonalar
20	Boshqalar	x	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi

Izoh:

1. Agar ushbu ro'yxatda ko'rsatib o'tilgan buyurtmachi korxonalar mavjud bo'lmasa, xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan boshqa buyurtmachi korxonalar belgilanishi mumkin;

2. Ushbu ro'yxatda ko'rsatib o'tilmagan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha buyurtmachilarni

belgilash xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

tartibi

Tuman budgetlari mablag'larini jamoatchilik fikri
asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish
to'g'risidagi nizomga
6-ilova

**_____ shahar bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli budget jarayoni
yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan ID _____ loyihani amalga oshirish
bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) Reestri**

Ming.so'm

T/R	Tovar (xizmat) nomi	soni	bozor narxi	Summasi
1				
2				
3				
4				
5				
...				
Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*				

*Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'dan ortib ketishi mumkin emas.